



The policy of economic zoning of Soviet power in Uzbekistan after World War II

Zamira TOIROVA¹

General Secondary Education School №40

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2023
Received in revised form
15 July 2023
Accepted 25 July 2023
Available online
15 August 2023

Keywords:

economic zoning,
reconstruction,
“socialist” production,
national economy councils,
greater Central Asia
Economic Region,
“Cotton” program.

ABSTRACT

This article clarifies the role of the republics in a single national economy and ensures the specialization of all regions in the interests of the country using the Soviet method of economic zoning. The economic policy of the Soviet state and its connection with the national economy of the republic are analyzed, which contributes to the improvement of methodological approaches and theoretical conclusions regarding the consequences of this policy.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss6/S-pp261-269>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Sovet hokimiyatining Ikkinchi Jahon Urushidan so'ng O'zbekistonda olib borgan iqtisodiy rayonlashtirish siyosati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Iqtisodiy rayonlashtirish,
qayta qurish,
“sotsialistik” ishlab
chiqarish,
Xalq xo'jaligi kengashlari,
Katta O'rta Osiyo iqtisodiy
rayoni,
“Paxta” dasturi.

Ushbu maqolada iqtisodiy rayonlashtirishning sovetcha uslubi bilan barcha rayonlarni mamlakat manfaatlari yo'lida ixtisoslashuvini ta'minlash, respublikalarning yagona xalq xo'jaligidagi o'rni oydinlashtirilgan. Shuningdek, mazkur maqola sovet davlatining iqtisodiy siyosati, rayonlashtirish va shu orqali respublika xalq xo'jaligini mamlakat xalq xo'jaligi bilan mahkam bog'lash, uning oqibatlariga oid metodologik-uslubiy yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

¹ Teacher, General Secondary Education School №40. Chirchik district, Tashkent region.

Экономическая политика зонирования советской власти в Узбекистане после Второй Мировой Войны

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Экономическое районирование, перестройка, «социалистическое» производство, советы народного хозяйства, большой Среднеазиатский экономический район, программа «хлопок».

В данной статье проясняется роль республик в едином народном хозяйстве и обеспечение специализации всех районов в интересах страны с помощью советского метода экономического зонирования. Анализируется экономическая политика советского государства и ее связь с народным хозяйством республики, что способствует совершенствованию методологических подходов и теоретических выводов относительно последствий этой политики.

KIRISH

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi bilan hududlarni kompleks rivojlantirish masalasi doimgidek dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Mintaqalar o'zlarida mavjud bo'lgan tabiiy boyliklar, qishloq xo'jaligi xomashyosi va mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada ko'tarish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda iqtisodiyotning har bir yo'nalishi ahamiyatli bo'lganligi bois, iqtisodiy zonalarini tashkil etish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib bormoqda. Dunyo tajribasida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham erkin iqtisodiy zonalar ishtirokiga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida ma'muriy tartib-taomil va ruxsat berish qoidalarini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, investitsiya jozibadorligini oshirish hamda erkin iqtisodiy zonalar xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati Toshkent iqtisodiy rayoni misolida davriy va muammoviy tamoyillar asosida olib borildi. Bunda sovet davrida, mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar, tadqiqotlar hamda xorijda nashr etilgan ishlar, maqolalar tadqiqotlar o'rganildi, sharhlandi, tanqidiy tahlil qilib umumlashtirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiylik tamoyili va tizimlilik, tahlil, qiyosiy-xronologik, ketma-ketlik, xolislik kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qariyb to'rt yil davom etgan ikkinchi jahon urushi mamlakatda xalq xo'jaligini tinch izga o'tkazish borasida bir qator ishlarni amalga oshirishni talab etdi. Zero, sanoatni tinch hayotga moslab qayta qurish urushdan keyingi yillarda katta qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi hamda xalqning hisobsiz moddiy va jismoniy harakatlarini talab qildi. 1945-yil 26-mayda Davlat Mudofaa Qo'mitasining "Qurol-yarog' ishlab chiqarishni qisqartirish munosabati bilan sanoatni qayta qurish tadbirlari to'g'risida"gi qarori chiqdi. Bu bilan butun mamlakat miqyosida ko'p korxonalar va butun sanoat tarmoqlari tinchlik davri mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tkazildi. Bu 1946-yil 18-martda SSSR Oliy

Sovetining sessiyasida qabul qilingan xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946–1950-yillarga mo'ljallangan to'rtinchi besh yillik rejasida ham o'z ifodasini topdi. Bu besh-yillikning asosiy xo'jalik siyosiy vazifasi sanoat va qishloq xo'jaligini urushdan ilgari darajaga yetkazish va undan ancha o'zib ketishdan iborat edi.

1950-yillarga kelib sovet davlatining urushdan keyingi-yillardagi tiklanish davri tugadi. SSSR hukumati uch-yil davomida kelajakda rivojlanishi mumkin bo'lgan salohiyatni yarata oldi. Urushdan keyingi yillarda xalq xo'jaligini rejalashtirish siyosati qat'iy davom etib, besh yillik reja sotsializmning kommunizmga asta-sekin o'tishning jangovar dasturi sifatida qabul qilindi. Urushdan keyingi yillarda sovet hukumati "iqtisodiy masalalarga umumdavlat manfaatlari nuqtai nazaridan yondashib, har bir respublikaning yagona xalq xo'jaligi kompleksiga qo'shadigan hissasi oshib borishini ta'kidlab kelsa-da, biroq, mamlakatda mintaqalararo oqilona bo'lmagan xalq xo'jaligi shakllantirilganligi bois respublikalar o'rtasida ziddiyatli holatlar yuzaga kela boshladi. Sanoat, ishlab chiqarish ma'lum sohada o'sdi, biroq iqtisodiy qiyinchiliklar mamlakat xalq xo'jaligini barcha sohalarini qamrab ola boshladi.

Mamlakatda "sotsialistik" ishlab chiqarish munosabatlarini bunday avj oldirish go'yoki, yangi vazifalarni belgilab bergandek edi. Unga ko'ra sotsialistik ishlab chiqarishni joylashtirish bobida "markscha – lenincha" nazariyaga, ya'ni sotsializmning iqtisodiy qonunlariga asoslangan nazariyaga muvofiq iqtisodiy rayonlarni rivojlantirish lozim edi. Bu qonunlarda mamlakatdagi barcha rayonlarni umumittifoq xo'jaligida to'g'ri ixtisoslashuvini ta'minlash, rayonlarda kompleks ravishda rivojlangan xo'jaliklarni vujudga keltirish, go'yoki qoloq rayonlarni ilg'or rayonlar darajasiga ko'tarish asosida mamlakatdagi barcha rayonlarni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish kuchlarini butun mamlakat bo'yicha bir tekisda joylashtirilishi lozim edi. Ishlab chiqarish tarmoqlari xomashyo hamda energiya manbalariga va iste'molchi rayonlarga yaqinlashtirilib, bu orqali uzoq joylardan noratsional yuk tashishlar tugatildi, rayonlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash maqsadida demokratik mamlakatlar lagerida o'zaro iqtisodiy yordamni kuchaytirish, rayonlarda katta elektr stansiyalari va kuchli elektr energiyasi berish liniyalari qurish asosida ishlab chiqarishni go'yoki yuksak darajada elektrlashtirishdan iborat bo'ldi.

Bunday usuldagi mintaqaviy boshqaruv "SSSRda iqtisodiy rayonlarning shakllanishi va mehnatning mintaqaviy bo'linishiga olib keldi", bunday usul go'yoki xalq xo'jaligini tarmoqlarga ajratib, rejalashtirish asosida boshqarishni, sotsialistik xalq xo'jaligi tarqoqligini bartaraf etishi, hududiy, tarmoqlararo boshqaruvga asoslanishi lozim edi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatda iqtisodiy va ma'muriy rayonlarni birlashtirish boshlandi. Xalq xo'jalik kengashlari tuzila boshladi. 1957-yilgacha viloyatlar ma'muriy jihatdan bo'lingan bo'lsa, endi iqtisodiy jihatdan bo'linishga asosiy urg'u berildi. Bunga ko'ra ma'muriy-iqtisodiy rayon "asosini mamlakat miqyosida xalq xo'jaligining sanoat yoki qishloq xo'jalik sohalarini ishlab chiqarishini o'zida jamlagan bo'lishi" lozim edi. Ayni paytda iqtisodiy rayonlar tabiiy shart-sharoit, aholining to'plagan tajribasi, ishlab chiqarish sohasidagi malakalardan foydalangan holda ixtisoslashishi, mehnatni eng kam sarf qilishni hisobga olib, boshqa iqtisodiy rayonlar bilan ratsional aloqalar o'rnatishi, iqtisodiy rayonlarda xalq xo'jaligini kompleks rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan tarmoqlarni esa yanada yuqori darajada rivojlantirishi, kuchli ishlab chiqarish texnika bazasi va yaxshi tayyorlangan yuqori malakali mutaxassis kadrlarning mavjudligi kabilarga alohida e'tibor qaratishi lozim edi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, SSSR xalq xo'jaligining muayyan territorial qismi iqtisodiy rayon deb atalib, bu mintaqalar mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan o'zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishi bilan ajralib turdi. Iqtisodiy rayonlarga bo'lish vaqtida mamlakatning siyosiy-ma'muriy jihatdan bog'lanishi ham maqsad qilib olingan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o'z hissasini qo'shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy qonuniga muvofiq ravishda rivojlanishini ta'minlagan. SSSRdagi har bir iqtisodiy rayon umumittifoq xo'jalik tizimidagi rayon bo'lgan, ularning umumittifoq mehnat taqsimotida, umumdavlat xo'jaligida o'zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish o'rni bo'lgan va har bir iqtisodiy rayon o'z rolini bajargan. Har bir rayon mamlakatdagi kengaytirilgan sotsialistik takror ishlab chiqarishining bir butun tizimida rivojlanib, o'z hissasini qo'shgan. Bu hissa butun sotsialistik ishlab chiqarish sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuniga batamom muvofiq ravishda rivojlanishini ta'minlagan. Biroq, Xalq xo'jaligi kengashlari tuzilgan dastlabki vaqtdan boshlab iqtisodiy rayonlar o'rtasida xomashyo va mahsulot yetkazib berishda tushunmovchiliklar kelib chiqib boshladi.

1961-yilga kelib mamlakatda iqtisodiy rayonlar 17 taga yetkazildi. 1963-yilda qayta ko'rib chiqilib, 18 ta bo'ldi. Biroq, iqtisodiy kengashlar faoliyati yuqoridan turib boshqaruvga asoslanganligi sababli natija bermadi. Milliy daromad esa 1961–1965-yillarda 5,7 foizgagina o'sdi. Bu avvalgi besh yillikka nisbatan ancha kamaydi. Xalq xo'jalik kengashlari o'rtasidagi xomashyo, tayyor mahsulot yetkazib berishdagi "begonalik" partiya belgilab bergan rejalarni bajarish imkonini bermadi. Xalq xo'jalik kengashlari faoliyati 1966-yilga kelib tugatilib, iqtisodiy rayonlar soni 18 taligicha qoldi.

1956–1960-yillardagi besh yillik rejalarida mamlakatning asosan Yevropa qismida elektr va issiqlik korxonalarini qurishga asosiy e'tibor qaratildi. 1959–1965-yillar besh-yillik rejalarida asosiy e'tibor mamlakatning Sharqiy rayonlariga qaratildi. 1966–1970-yillardagi sakkizinchi besh yillikka kelib, mamlakatda iqtisodiy rayonlar 18 taga yetdi. Bu besh-yillikda ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, ya'ni mamlakatning Sharqiy hududlarida yoqilg'i qazib olishni ko'paytirish, elektroenergiya ishlab chiqarish, rangli metall ishlab chiqarish, kimyo sanoatini rivojlantirish, hamda mamlakatning g'arbiy va sharqiy hududlari o'rtasida xo'jalik aloqalarini rivojlantirishga qaratildi. 1971–1975-yillarni o'z ichiga olgan to'qqizinchi besh-yillikda ham 18 ta iqtisodiy rayonda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, tabiiy imkoniyatlardan foydalanish, mamlakat sharqiy rayonlarini iqtisodiy salohiyatini yanada o'stirish belgilandi. Buning uchun kapital mablag'ning 1/3 qismi ajratildi. 1976–1980-yillardagi besh yilliklarda yana mamlakatning sharqiy hududlarida neft, gaz qazib olishni ko'paytirish, alyumin ishlab chiqarishni 90 foizga, mis olishni 80 foizga, sellyulozani 45 foizga yetkazish belgilandi. Xususan, O'zbekiston SSRda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 35-39 foizga, Qirg'iziston SSRda 33-37 foizga, Tojikiston SSRda 38-42 foizga, Turkmaniston SSRda 30-34 foizga o'stirish belgilab berildi. O'zbekiston SSRda elektr, elektrotexnika va kimyo sanoatini, oziq-ovqat, yengil sanoat mashinasozligini rivojlantirish, paxtachilik va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalashtirish kabi vazifalar belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligining yalpi-yillik mahsulotini 21-24 foizga, Qirg'iziston SSRda 12-15 foizga, Tojikiston SSRda 15-18 foizga, Turkmaniston SSRda 14-17 foizga, ko'tarish belgilandi. 1980-yilda O'zbekiston SSR paxta yetishtirishni 5,8 mln.tonnaga olib chiqish, ko'mir qazib olishni 124-127 mln.ga tonnaga

yetkazish, neftni qayta ishlashni 3.8-martaga oshirish, Turkmaniston SSRda elektroenergiya ishlab chiqarishni 2-martaga ko'paytirish, neft qazib chiqarishni 1.5-martaga oshirish kabi vazifalar belgilab berildi. Bulardan ko'rinadiki, mehnat salohiyatining yetarliligi, yer osti konlarining mavjudligi, suv resurslarining yetarliligi, iqlimi kabi omillar mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun mamlakatning (Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni. M.A.) Sharqiy hududlardagi salohiyatdan imkon daraja foydalanish zaruratini qo'ydi. Biroq, xalq xo'jaligi kengashlarining orasida dastlabki vaqtdan xomashyo, tayyor mahsulot yetkazib berishdagi tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, sotsialistik ishlab chiqarishning maqsadi, sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuni tomonidan belgilanganidek, butun jamiyatning to'xtovsiz o'sib borayotgan moddiy va madaniy ehtiyojlarining "maksimal darajada qondirilishini ta'minlash" bo'lganligini hisobga olgan holda, bu iqtisodiy rayonlar butun mamlakat manfaatlarini uchun xizmat qildi. Har bir iqtisodiy rayon rivojlanishi xuddi ana shu sotsialistik ishlab chiqarish iqtisodiy qonuni talablariga batamom muvofiq ravishda amalga oshirildi. Shu sababli avvalo butun sotsialistik jamiyatning, umuman butun mamlakatning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilishda avvalo har bir rayonning roli va tutadigan o'rni belgilandi. Shunga binoan iqtisodiy rayon xo'jalik kompleksidagi ixtisoslashtirilgan tarmoqlar, ya'ni xo'jalikning umumittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy bo'g'ini sifatida belgilandi. Masalan, Moskva oblastidagi asosiy tarmoqlar – mashinasozlik va elektrotexnika, Uralda -metallurgiya va mashinasozlik, Ozarbayjonda – neft sanoati va paxtachilik, Ukrainada – ko'mir sanoati, metallurgiya, don sanoati, mamlakatning Shimoliy rayonlarida – o'rmon xo'jaligi, O'rta Osiyo respublikalarida – paxtachilik, ipakchilik, qorako'lchilik, Qozog'istonda – rangli metallurgiya, chorvachilik, don xo'jaligi va boshqalarga ixtisoslashdi.

1970–1980-yillarga kelib esa, ish bilan so'z o'rtasidagi qarama – qarshiliklar, katta vazifalarni belgilashda, mustaqil qaror qabul qilishda bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

Iqtisodiy rayonlar sotsialistik ishlab chiqarishning iqtisodiy qonunlariga muvofiq amalga oshirilishi bilan avvalo butun mamlakat ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajargan bo'lsa, shunga binoan ular xo'jalik kompleksidagi ixtisoslashtirilgan tarmoqlar umumittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy bo'g'in bo'lib qoldi. Shu tariqa SSSR xalq xo'jaligida qabul qilingan sotsialistik tuzumning iqtisodiy qonuniyatlariga asoslangan hududiy ishlab chiqarish aslida mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish istiqbollari belgilab berdi.

O'rta Osiyo iqtisodiy rayoniga O'zbekiston SSR, Qirg'iziston SSR, Tojikiston SSR va Turkmaniston SSR respublikalari kirgan. O'zbekiston SSR mana shu iqtisodiy rayonlar orasida o'z o'rniga ega bo'lib, maydonining hajmi jihatidan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonini tashkil etgan respublikalar orasida Turkmaniston SSRdan so'ng ikkinchi o'rinda turdi. Uning maydoni 449,6 ming km².ni tashkil etdi. Bu maydonga Buyuk Britaniya, Belgiya, Gollandiya, Shveysariya, Avstriya davlatlarini sig'dirish mumkin edi. Umuman olganda O'zbekiston SSR SSSR territoriyasining 2 foizini egallab, bu yerda mamlakat aholisining 5,1 foizi istiqomat qilgan.

O'zbekistonning Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida tutgan o'rni yuqori bo'lgan, O'zbekiston SSR sanoati mamlakat sanoatining tarkibiy qismi edi. O'zbekiston SSRning ishlab chiqarish usuli va uslubi bir muncha boshqacha bo'lib paxtachilik respublika qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'it tayyorlash, paxta tozalash sanoati, to'qimachilik sanoati va unga mashina hamda uskunalari yetkazuvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalarini rivojlanish imkonini berdi. Shu sababli O'zbekistonda xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xomashyo tuzilmasi shakllandi. Ayni paytda O'zbekiston paxtachilik sanoatidan tashqari qora va rangli metallurgiya, mahalliy ehtiyojni qondiruvchi iste'mol buyumlari yaratuvchi tarmoqlar rivojlandi. O'zbekiston SSRdagi ko'ptarmoqli mashinasozlik katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'ldi. Uning tarkibida 300 ta tashkilot bo'lib, ulardan 70 tasi 16 ta butunittifoq vazirliklariga qarashli katta mashinasozlik zavodlari edi.

Shuningdek, O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlarida sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlari yetishtirish va tez buziladigan mahsulotlarni qayta ishlaydigan agrar-sanoat korxonalari, kombinatlari va birlashmalari tuzildi. Respublikada hududiy agrar sanoat birlashmalari (ASB)lar tashkil etildi. 1980-yillar respublikada ana shunday ASBlar 17 ta bo'lib, ular Toshkent iqtisodiy rayonida – 5 ta, Farg'ona iqtisodiy rayonida – 5 ta, Samarqand-Qarshi iqtisodiy rayonida – 3 ta, Buxoro – Qizilqum iqtisodiy rayonida – 1 ta, quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida – 2 ta, Surxondaryo iqtisodiy rayonida – 1 ta bo'lgan.

O'zbekistondagi iqtisodiy rayonlarning o'zi respublikani ancha murakkab ahvolga solib qo'ygan edi. Joylashtirilgan korxonalar hududlar o'rtasida jiddiy nomutanosiblikni keltirib chiqarar edi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda mavjud sanoat korxonalari mamlakat miqyosidagi 18 ta vazirlikka bo'ysundirilgan edi. Ayni paytda viloyatlarda turli sohaga ixtisoslashgan sanoat korxonalari yoki ularning kichik tarmoqlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lsa-da, respublikadagi sanoat korxonalarining yig'indisi asosan Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelgandi. Qolgan Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog'istonda ASSRda xalq xo'jaligi uchun zarur zaxira va imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, bu yerlarda sanoat rivojlanish ko'rsatkichlar ancha orqada edi.

Mehnatning mintaqaviy bo'linishiga ko'ra Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayoni Shuningdek, "Paxta" xomashyo kompleksi atrofida ham rivojlangan edi. "Paxta" dasturi ma'lum maqsadlar sari aniq yo'naltirilgan bo'lib, u 11 ta qismlardan iborat bo'lgan. Jumladan, paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirib borish, paxta hosildorligini oshirish, yagona xalq xo'jaligini yuqori sifatli xomashyo bilan ta'minlash, xomashyo sifatini saqlab turish, paxtadan ishlab chiqariladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, paxta xomashyosini yetishtirishda sohani muntazam ishchi kuchi bilan ta'minlab turish, suv zaxiralarini to'g'ri ishlatish, ayni paytda suv bilan ta'minlashni yuqori bosqichda amalga oshirish, tuproqni takror ishlab chiqarishini ta'minlash, atrof-muhitni himoyalash, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi xo'jalik tarmoqlari kompleksini rivojlantirish, paxta yetishtirishda texnik bazani mustahkamlash, xalq xo'jaligida paxtachilik kompleksini iqtisodiy uslublar asosida takomillashtirish, xalq xo'jaligida xizmat mexanizmini takomillashtirish kabilar tashkil etar edi. Ushbu dastur mamlakat xalq xo'jaligida paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish va o'zaro Iqtisodiy yordam kengashi davlatlari tarkibiga kiruvchi sotsialistik davlatlarni xomashyo bilan ta'minlash orqali tashqi munosabatlarni yo'lga qo'yishdan iborat edi.

1970-yillarda sobiq SSSRda turg'unlik davrining boshlanishi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish sur'atining pasayishi haqida bila turib sukut saqlandi va bu davrdagi ko'rsatkichlar iloji boricha ko'zbo'yamachilik va qo'shib yozish orqali bo'rttirildi. O'z-o'zini maqtash bilan erishilgan natijalar haqida yolg'on hisobotlar berish, qabul qilingan qarorlar ustidan tegishli nazoratning yo'qligi xalq xo'jaligida xo'jasizlik hamda sarf-xarajati ko'p iqtisodiyotni shakllantirdi. Bajarilishi lozim bo'lgan masalalar avval partiya tashkilotlarida ko'rilib, keyin ijrochi tashkilotlarga topshirilishi bilan mamlakat xalq xo'jaligi boshqaruvi butunlay partiyaning qo'lida qoldi. Yuqoridan pastga qarab rejali rahbarlik qilish, rivojlanishda sarf – xarajatdan iborat bo'lgan yondashuv, respublikalarda ishlab chiqarishning bir sohaga ixtisoslashib, iqtisodiy majburiyat darajasiga ko'tarilishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishga, ijtimoiy – madaniy jabhalarga ta'sir etib, iqtisodiy o'sishning umumiy dinamikasini izdan chiqarib yubordi.

Aslida mamlakatda yuzaga kelgan jarayonlar o'z navbatida ittifoqdosh respublikalarda ham qiyin kechib, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Sotsialistik ishlab chiqarish qonunlariga ko'ra davlatning iqtisodiyotni rejalashtirishi va uning boshqarilishi bir-biridan ajralmagan holda olib borilgani sababli iqtisodiy rayonlar hududiy rejalashtirishning asosiy omili bo'ldi. Mamlakatdagi barcha iqtisodiy – geografik, rejali boshqaruv, tuman va ma'muriy – hududiy rayonlarning barchasi sovet iqtisodiy qonuniga ko'ra iqtisodiy rayonlar hisoblandi.

XX asr 80-yillarida ham ittifoqdosh respublikalar haq-huquqlari cheklanganligicha qolaverdi. Respublikalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini tenglashtirish masalasi-yillar davomida hal bo'lmay, amalda mamlakat iqtisodini yanada og'ir holatga tushishiga sabab bo'ldi. Zero, XX asr 80-yillaridagi ilmiy yechimini topmagan va hech qanday ilmiy xulosalar, jahondagi ilg'or tajribalarga asoslanmagan “jadallashtirish”, chuqur o'ylanmagan va kommunistik mafkura doirasidan chiqq olmagan “qayta qurish” jarayonlarini joriy etish bilan ham sobiq sovet davlatida yuzaga kelgan og'ir iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni bartaraf etib bo'lmas edi. Isrofgarchilikning aniq ko'rinishi bo'lgan xo'jasizlik natijasida mamlakat ishlab chiqargan mahsulotni o'zi iste'mol qildi yoki dunyodagi muhtoj davlatlarga yordam tariqasida jo'natdi. Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar bo'lsa olingan daromaddan ortib ketdi. “Yagona xalq xo'jaligi” kompleksi tarkibidagi iqtisodiy hayotining barcha sohalari markazdan boshqarilishi natijasida sovet davlatining iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlari jihatidan dunyodagi rivojlangan davlatlardan ancha orqada qolib ketdi. Rejani bajarish qonun qilib qo'yilgan sharoitda korxonalarini yangi texnika va texnologiya bilan jihozlash haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Masalan, O'zbekistonda 1985-yilga kelib 1500 dan ortiq ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar mavjud bo'lgan holda respublika iqtisodi bir joyda deysinib turaverdi va hatto ayrim sohalarda orqaga ketish hollari ro'y berdi.

XULOSA

Sovet davlati xalq xo'jaligida iqtisodiy rayon deb atalgan hududlar butun sovet mamlakatida umumittifoq xo'jalik tizimidagi hudud bo'lgani xolda, ular o'zining ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishi bilan har bir iqtisodiy rayon o'z vazifasini bajardi. Ular sotsialistik ishlab chiqarish tizimida ishlab, sotsializmning asosiy iqtisodiy qonuniga amal qildilar. Ayni paytda mamlakatdagi iqtisodiy rayonlarni rivojlantiradigan jihatlar rayondagi texnika, muayyan ishlab chiqarish malakalariga ega bo'lgan aholi, shuningdek, tabiiy sharoiti va boyliklar bo'lgan.

Biroq, sovet davlatida rasman e'lon qilingan iqtisodiy va ma'muriy rayonlashtirish siyosati respublika, o'lka va viloyatlarda faoliyat yuritgan Xalq Xo'jaligi sovetlari mamlakatda sezilarli darajada o'zgarishlarga olib kelmadi. O'rta Osiyo iqtisodiy rayonining bir qismi bo'lgan O'zbekistonda xo'jalikning asosiy tarmog'i paxtachilik bo'lib, bu tarmoq umumittifoq ahamiyatiga ega bo'ldi hamda sovet ittifoqida yetishtiriladigan paxtaning uchdan ikki qismini O'zbekiston berdi. O'zbekistonning umumittifoq mehnat taqsimotidagi, butun sovet ittifoqining iqtisodiy qudratini mustahkamlashdagi asosiy roli, muhim ahamiyati xuddi ana shunda bo'lgan edi. Paxta tolasi mamlakat bo'ylab kiyim-kechak uchun turli xildagi ip-gazlamalar, trikotaj buyumlar, brezentlar, parashyut uchun ishlatiladigan maxsus gazlamalar, harakatni bir mexanizmdan ikkinchi mexanizmga ko'chirish tasmalari, korj tayyorlash uchun ishlatiladigan iplar, (korj – avtomobil pokrishkalari tayyorlash uchun ishlatiladigan zarur buyum), baliq ovlash to'rlari, elektr simlarini o'rash uchun ishlatiladigan buyumlar, oyoq kiyimini tayyorlash uchun ishlatiladigan maxsus kirza gazlamalari ishlab chiqariladi. Paxta kimyo, qog'oz sanoatida, sanoatning boshqa tarmoqlarida ham ishlatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Партия СССРда социализм куришни тугаллаш даврида (1946-1958 йиллар) // Ўзбекистон коммунисти. 1967 йил, 1 январь. – 65-бет.
2. История России. С древнейших времен до конца XX века. – Москва. АСТ, 2000. – С.526.
3. Бедринцев Н.К. СССР Халқ хўжалигида Ўзбекистоннинг тутган ўрни. ... – 6-бет.
4. Досумов Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования. – С. 24.
5. Зиядуллаев Н.С. Моделирование региональных экономических систем. ... - С. 10-11.
6. Елизаров С.А. Экономическое районирование и административно-территориальное деление: исторический опкт БССР // Белорусский экономический журнал. 2007. -№4, – С.123.
7. Зокиров Ш. Ўзбекистон халқ хўжалиги ва унинг бутуниттифоқ меҳнат тақсимида тутган ўрни. – Тошкент. “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1960. – 4-бет.
8. Костенников В.М. Развитие экономических районов СССР (перспективы и проблемы). Пособие для учителей. – Москва. Просвещение, 1977. – С.7.
9. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – Москва. Мысль, 1969. – С.295.
10. ЎЗР МА. Р-2303-фонд, рўйхат-1, йиғма жилд -2. 17-б
11. Морозова Т.Г. Экономическая география России. – Москва. Юнити-Дана, – С. 342.
12. Палеев Ю.Н. Экономические районы СССР. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/106/995.htm>.
13. См. Костенников В.М. Развитие экономических районов СССР. (Перспективы и проблемы). Пособие для учителей. – Москва. Просвещение, 1977. -С.17-19.
14. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях съездов, конференций и пленумов ЦК. Т.13. 1976-1980. – Москва. – Изд. Полит лит. 1987. – С.79-84.
15. Алаев Э.Б.Эффективность комплексного развития экономического района. – Москва. Наука, 1965. – С.7.

16. Бедринцев К.Н. СССР Халқ хўжалигида Ўзбекистоннинг тутган ўрни. - №51.... – 4-бет.
17. Палеев Ю.Н. Экономические районы СССР. <https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/106/995.htm>.
18. Бедринцев К.Н. Ўзбекистон ва унинг иқтисодий районлари. ... -37-б.
19. Қаранг: Управление социалистическим производством. Вопросы теории и практики. – М.:Экономика, 1978. –С. 678-679.
20. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. Т. 1. -Б.-61.
21. Зиядуллаев К. Индустрия советского Узбекистана... -С. 6.
22. Интенсификация развития машиностроительного комплекса Узбекистана. – Ташкент. Фан, 1988. -С. 34.
23. Бедринцев А.К. Ўзбекистон территориал ишлаб чиқариш комплексларини шакллантириш. – Тошкент. Ўзбекистон. 1982. – 27-28-бетлар.
24. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.-529.
25. Досумов Р.Я. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования... -С. 12.
26. Зиядуллаев Н.С. Моделирование региональных экономических систем... -С. 122.
27. Қаранг: Досумов Р. Перестройка управления промышленным производством в новых условиях хозяйствования. – Ташкент: Фан, 1990. -С. 7.
28. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. ...- Б-12.
29. Костенников В.М. Развитие экономических районов СССР (перспективы и проблемы). Пособие для учителей. – Москва. Просвещение, 1977. – С.5.
30. Қаранг: Дзарасов С. Партийная реформа. Какой ей быть? // Правда. 1989 год 27 декабрь.